



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 35-45 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TURIZM VA BARQAROR RIVOJLANISH: RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA TASHQI OMILLAR



A.B.Taniyev

Toshkent davlat iqtisodiyor universiteti Samarqand filiali

“Moliya, soliq va bank ishi” kafedrası professor

Ziyodullayeva Zarina Oybek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyor universiteti Samarqand filiali

Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo’nalishi

MT-224 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekistonda turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlaridan kelib chiqqan holda bozor mexanizmlarining samarasizligi, resurslarni baholash masalalari va tashqi omillar ta’siriga qaratilgan. Turizm sohasidagi avlodlar orasidagi adolatsizliklar, jamoat tovarlaridan foydalanish, va bu sohadagi bozor nuqsonlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Turizm, bozor mexanizmlari, resurslarni baholash, tashqi omillar, jamoat tovarlari, avlodlar orasidagi adolat, ekologik ta’sir, O‘zbekiston.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективности рыночных механизмов, оценки ресурсов и влияния внешних факторов в сфере туризма Узбекистана с учетом его экономических, социальных и экологических аспектов. Анализируются межпоколенческие есправедливости, использование общественных благ и рыночные дефекты в туристической отрасли.

Ключевые слова: Туризм, рыночные механизмы, оценка ресурсов, внешние факторы, общественные блага, межпоколенческая справедливость, экологическое воздействие, Узбекистан.

Abstract: This article focuses on the inefficiency of market mechanisms, issues of resource evaluation, and the impact of external factors in the context of the economic, social, and environmental aspects of tourism in Uzbekistan. It analyzes intergenerational inequalities, the use of public goods, and market failures in the tourism sector.

Keywords: Tourism, market mechanisms, resource evaluation, external factors, public goods, intergenerational justice, environmental impact, Uzbekistan.

Kirish

O‘zbekiston turizm sektori, o‘zining boy madaniy merosi va noyob tabiiy go‘zalliklari bilan, jahon turizm bozorida muhim o‘rin tutishi mumkin. Biroq, sohaning potentsiali to‘liq ishga solinmagan va bu bir qator murakkab iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik chellengelar bilan bog‘liq. Mazkur maqola O‘zbekistonda turizmning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni — bozor mexanizmlarining samarasizligi, resurslardan foydalanishning muammolari va tashqi omillarning ta’siriga qaratilgan.

Turizm industriyasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin, lekin bu salbiy ta'sirlarsiz amalga oshmaydi. Rivojlanish jarayonida atrof-muhitga zarar yetkazilishi, madaniy meros obyektlariga ortiqcha yuklanish, shuningdek, mahalliy jamoalar uchun ijtimoiy va iqtisodiy muammolar kelib chiqishi mumkin. Bu muammolarni hal etishda bozor mexanizmlari va hukumat aralashuvi orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Shunday qilib, maqola O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar va siyosatlarni ishlab chiqishda, bozor mexanizmlarining rolini, resurslardan samarali foydalanishni va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'llarini tahlil qilishga qaratilgan. Mazkur tadqiqot, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy adolat masalalarini ham ko'rib chiqadi, bu esa turizmni mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirlarini o'rganish bo'yicha ilmiy adabiyotlar keng va xilma-xil. Mazkur maqolada ko'rib chiqilgan mavzular bo'yicha yondashuvlarni aniqlash uchun bir qator olimlarning ishlari tahlil qilindi. Xotelling (Hotelling) va Pirs (Pearce) bu borada muhim hissa qo'shgan olimlardandir. Xotellingning resurslarning cheklanganligi va ularni boshqarish muammolari haqidagi nazariyalari, turizm sektorida resurslardan foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Pirsning esa, turizmning ekologik ta'sirlari va ularni boshqarish strategiyalari bo'yicha ishlari, bu sohada ilmiy tadqiqotlarga katta ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek, Terner (Turner) va Gilpin (Gilpin)ning iqtisodiy modellari ham bu masalada muhim rol o'ynaydi. Ternerning tabiiy resurslar va ekosistema xizmatlarining iqtisodiy qiymatini baholashga qaratilgan tadqiqotlari, resurslarni bozor mexanizmlari orqali boshqarish masalalarini chuqur tushunishga yordam beradi. Gilpinning bozor muammolari va ularni tuzatish mexanizmlari haqidagi tadqiqotlari esa, bozor nuqsonlarini aniqlash va ularni hal etishda muhim yondashuvlarni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Holden (Holden) va Fennell (Fennell)ning turizm etikasi va barqarorligi masalalariga qaratilgan ishlari ham muhokama uchun asos bo'ldi. Ularning tadqiqotlari turizmning mahalliy jamoalarga ta'siri va turizm faoliyatlarini etik jihatdan boshqarishning ahamiyatini urg'ulaydi. Bu mavzular muhim bo'lib, turizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda inson va tabiiy kapital o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratishni talab qiladi.

Ayni paytda, Lichfild (Lichfiyeld), Park (Park), Saati (Saaty), Terner, Beyker (Baker), va Richi (Ritchie) kabi olimlarning ishlari ham ko'rib chiqildi. Ularning tadqiqotlari turizm industriyasining iqtisodiy modellarini va strategik rejalashtirishni qamrab oladi, bu esa turizmni boshqarish va rivojlantirish bo'yicha ko'plab muhim masalalarni yoritadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda turizmning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirlarini tahlil qilish va bu ta'sirlar orqali turizm sektorining rivojlanishini baholashdir. Tadqiqot yuqorida qayd etilgan muammolarga yarasha, aralash metodologiyadan foydalanadi, bu ikki turdagi usullarni o'z ichiga oladi: kitobiy tadqiqot va amaliy o'rganishlar.

Resurslarning bozor narxi, ularni yetkazib berish xarajatlari, ularning nisbiy narxi o'zgarganda o'rnini bosuvchi imkoniyatlar hamda ulardan samarali foydalanish yoki ularning o'rnini bosuvchi texnologiyalarni yaratish imkoniyatlari bozorlarda taqsimotni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari hisoblanadi. Buni neft misolida ko'rib chiqsak, 2008 yilda neft resurslariga bo'lgan talabning ortishi ushbu resursning cheklanganligini yanada dolzarb masalaga aylantirdi. Narx o'zgarishi va bozor kuchlari talabni kamaytirish, taklifni oshirish, yangi o'rnini bosuvchi yoqilg'ilarni qidirish hamda uni samarali ishlatish va yetkazib berish uchun yangi texnologiyalarni qo'llashga harakat qildi.

Bu mexanizmlar "Optimistlar" yoki ekologik iqtisodiyotdagi "kuchsiz barqarorlik" yondashuvini aks ettiradi. Ushbu yondashuv bozorlar qimmatli resurslarni tejash, ularning tanqisligi, chiqindilar va ifloslanishni boshqarish, atrof-muhitning holatini yaxshilash masalalarini hal qilish qobiliyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi, agar mulk huquqlari ta'minlansa. Bu nuqtai nazarga ekologik iqtisodiyot pozitsiyasidan qaraganda e'tirozlar bildiriladi. Ular bozorlarning nomukammalliklari, samarasizliklari, mulk huquqlarini belgilash murakkabliklari va bozor mexanizmlarining yetarlicha tez ishlamasligini ta'kidlaydilar. Eng asosiysi, bozorlarning ishlamagan holatlari borligini ta'kidlashadi.

O'zbekistonda turizmning rivojlanishi ko'p jihatdan tabiiy va madaniy resurslardan samarali foydalanishga bog'liq. Bozor mexanizmlari madaniy yodgorliklar, tabiiy qo'riqxonalar va turizmga mos infratuzilmani to'g'ri baholashda yetarli emas. Bu resurslarni narxlash yoki ularning qiymatini baholash bo'yicha to'g'ri tizim mavjud emas, natijada ulardan ortiqcha yoki samarasiz foydalanish holatlari kuzatiladi.

Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlardagi madaniy yodgorliklar va ularga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonining ortishi bilan tarixiy obyektlarga zarar yetkazish xavfi yuzaga kelmoqda. Bu obyektlarni saqlash uchun hukumat va mahalliy tashkilotlar tomonidan qo'shimcha mablag'lar sarflanmoqda, lekin ularning ijtimoiy va iqtisodiy qiymati haqida aniq baholar mavjud emas.

Iqtisodiyot bozorlarning samarasizliklarini aniqlash va taqqoslash uchun samarali taqsimot hamda tovarlar va xizmatlarni taqsimlash bo'yicha ideal sharoitlarni ko'rsatuvchi mezonni quradi. Ammo amalda ushbu sharoitlar bir necha yo'nalishlarda ta'minlanmaydi, shu sababli taqsimot samaradorligiga erishilmaydi.

Ijtimoiy iqtisodiyotda "bozorning ishlamagan holati" deb nomlanadigan holatlar o'rganiladi. Lekin bu atama noto'g'ri tushunilishi mumkin, chunki bozor ishlamaydi degan ma'noni bildirmaydi, balki bozor farovonlik muammolarini hisobga olmaydi. Asosan, ekologik va atrof-muhit iqtisodiyotining maqsadi bozorning ishlamagan holatlarini aniqlash va ularni yumshatish bo'lib, bu atrof-muhit va tabiiy kapital (Kn) rolini boshqarishga qaratilgan. "Bozorning ishlamagan holati" qutisida uchta asosiy farovonlik muammolari ta'kidlanadi: tashqi omillar, jamoat tovarlari va avlodlar orasidagi tenglik. Bu uchta muammoning o'zaro ta'siri mavjud.

Ba'zi tanqidlarga qaramay, bu ekologik kontekstda mustahkam o'rin olgan tushuncha. Bu yerdan foydalanish rejalashtirish hamda hukumatning boshqa chora-tadbirlarini asoslash uchun qo'llaniladi, chunki tabiiy resurslar va atrof-muhit sifati boshqaruvida yumshovchi choralar talab qilinadi. Bozorda savdoga chiqarilmaydigan

tovarlar va xizmatlar, masalan, jamoat tovarlari uchun talabni baholash va ularning qiymatini aniqlash ham shular jumlasidandir.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasi, ayniqsa, qishloq hududlarda rivojlanmagan. Qishloq turizmida yo'llar, mehmonxona va boshqa qulayliklarning yetishmasligi bozorning samarali ishlashini cheklaydi. Bu hududlardagi turizm imkoniyatlari kambag'allikni yumshatishda katta rol o'ynashi mumkin, ammo investitsiyalar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetishmasligi bu imkoniyatlarni to'liq ro'yobga chiqarmaydi.

Tashqi omillar deganda, biron-bir shaxsning iste'mol yoki ishlab chiqarishdagi qarorlari boshqa iste'molchilarning farovonligiga yoki boshqa ishlab chiqaruvchilarning mahsulot hajmi, daromadi va foydasiga bilib-bilmay ta'sir ko'rsatishi tushuniladi. Bu ta'sirlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Tashqi omildan foyda ko'rgan taraf buni ta'minlagan tarafga to'lov amalga oshirmaydi va aksincha, salbiy ta'sir ko'rsatgan taraf jabrlangan tarafga kompensatsiya to'lamaydi. Tashqi omillar quyidagi to'rt turga ajratiladi:

- Iste'molchidan iste'molchiga
- Ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga
- Ishlab chiqaruvchidan ishlab chiqaruvchiga
- Iste'molchidan ishlab chiqaruvchiga

Ekologik iqtisodiyotda asosiy e'tibor salbiy tashqi omillarga, ayniqsa, havo chiqindilari, suv havzasiga oqindilar va shovqin bilan bog'liq ta'sirlarga qaratiladi. Bular asosan ikkinchi va uchinchi kategoriyalarga tegishlidir. Ijobiy tashqi omillarga kelganda, sayyohlar va turizm provayderlari uchun katta manfaatlardan biridir. Turizm mahsuloti bo'lgan tabiiy resurslar va sun'iy muhit mahalliy jamoalar va manzillar hisobidan taqdim etiladi. Bu xizmat uchun jamoalar bevosita haq olmasalar ham, sayyohlar va turizm bizneslari tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar orqali bilvosita to'lovlar ta'minlanadi.

Tashqi omillar va ularning ta'sirlarini tushunish uchun turizm bilan bog'liq holatlarning ko'rsatuvchi misollari orqali tushuntirish yaxshi natija beradi.

a. Iste'molchidan iste'molchiga

Sayyohlar iste'molchi sifatida tashqi omillarga ko'proq sayohat qilib manzilga borish va u yerda bo'lib turish jarayonida duch kelishlari mumkin. Masalan, yozgi va qishki dam olish mavsumlari, jamoat bayramlari davrida aeroportlar juda band bo'ladi, ro'yxatdan o'tish va xavfsizlik tekshiruvlari ko'proq vaqt talab qiladi. Shuningdek, manzilga yetib kelganda kirishdagi migratsiya jarayonlaridagi cho'zilishlar kuzatilishi mumkin.

Ko'plab turli xil tajribalarni (plyajlar, madaniy yodgorliklar, gastronomik va yovvoyi tabiatga oid qiziqishlar) taklif qiladigan manzillar o'zaro mos kelmaydigan sayyohlarni jalb qilishi mumkin. Masalan, shovqinli yoshlar va tinch dam olishni istagan katta yoshli turistlar o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqishi kuzatilgan. Manzildagi mahalliy aholi ham shunday holatlardan aziyat chekishi va madaniy jihatdan noo'rin xulqlar yoki jinoyatchilikning ortishiga duch kelishi mumkin.

b. Ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga

Turizmga bog'liq bo'lmagan tijorat va sanoat iqtisodiy faoliyati hamda turizm provayderlari tomonidan sayyohlarga tashqi omillarning ta'siri bo'lishi mumkin. Ko'pgina shaharlar va qishloqlar, shuningdek, turizm manzillari bo'lgan joylarda iqtisodiyotlar ifloslanish va atrof-muhitning buzilishiga olib keladi.

Zamonaviy ifloslanish shakliga misol qilib shaharlarda avtomobillar harakati natijasida paydo bo'ladigan fotohimiyaviy tumanni keltirish mumkin. Bunga Bangkok, Pekin, Los-Anjeles, Mexiko va Toshkent kabi shaharlar kirishi mumkin.

Turizm provayderlarining sayyohlarga ta'siriga kelsak, ko'zga chalg'uvchi ta'sirlar, masalan, tarixiy shaharlar konservatsiya hududlarida yoki ular yonida noto'g'ri qurilgan zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari misol bo'lishi mumkin. Shuningdek, yuqori mavsumlarda sayyohlarning ortiqcha miqdori joylashtiriladigan dam olish komplekslari yoki tinch qishloq joylardagi shovqinli tadbirlar va sport musobaqalari ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir misol, sohildagi dam olish maskanlari va turizm obyektlarining haddan tashqari rivojlanishi ifloslanishga olib keladi va bu ham aholi, ham sayyohlar uchun sog'liqqa zararli holatlarni yuzaga keltiradi.

c. Ishlab chiqaruvchidan ishlab chiqaruvchiga

Yuqorida keltirilgan iste'molchilarga umumiy iqtisodiy faoliyatning tashqi ta'sirlari misollari kabi, turizm sektori provayderlari ham xuddi shunday salbiy ta'sirlarga duch kelishi mumkin. Shuningdek, ular bir-birlariga manfaat yoki xarajat yuklovchi tashqi ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Makon iqtisodiyoti sohasidagi tadqiqotlarga ko'ra, bizneslar o'zaro raqobatda bo'lsa ham, bir-birlari uchun qo'shimcha daromad va foyda yaratish orqali o'zlarining o'zaro ta'sirini oshiradi.

Pirs¹ buni aniq ifoda etmagan bo'lsa-da, u turizm rivojlanishining mahalliy manzillarda salbiy ta'sirlari haqida so'z yuritganida, masalan, asotsial xulq-atvor, jinoyatchilikning ortishi, kasalliklar tarqalishi, tig'izlik, shovqin, mahalliy xizmatlarga bosim kabi holatlarni tilga olgan edi. U shunday qilib, turizm provayderlari tomonidan keltirilgan tashqi ta'sirlarni aniqlagan edi.

d. Iste'molchidan ishlab chiqaruvchiga

Iqtisodiyotda bu kategoriya ahamiyatsiz deb ko'riladi, ammo tig'izlik, havo va suv ifloslanishi kabi holatlar ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan, turizm sohasidagi ishlab chiqaruvchilar uchun xarajat sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan, bayram kunlari yuzaga keladigan transport tig'izligi, hatto turizm manzillaridan uzoqda bo'lsa ham, yo'lda turizm bizneslari uchun mahsulot yetkazib berish jarayoniga to'siq bo'lishi mumkin.

O'zbekistonning turizm sohasidagi vaziyati yuqorida keltirilgan konsepsiya va muammolar bilan bog'liq jihatlarni aks ettiradi. Mamlakat o'zining boy madaniy-tarixiy merosi, tabiiy resurslari va jahon turizm bozoridagi o'sib borayotgan ahamiyati bilan turizm rivojlanishida katta salohiyatga ega. Shu bilan birga, turizm sohasi rivojlanishida bozor nuqsonlari, resurslarni baholash, tashqi omillar, jamoat tovarlaridan foydalanish hamda avlodlar orasidagi adolat masalalari dolzarb hisoblanadi.

¹ Pearce, D.G.(1989) 2nd edn, Tourism Development, Harlow: Longman.

Turizmning tashqi omillari, xususan, ekologik ta'sirlar O'zbekistonda sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Masalan: Chimyon va Bo'stonliq hududlarida ortiqcha turistlar oqimi tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Madaniy meros obyektlari, masalan, Registon yoki Ichan-qal'a, o'ta ko'p miqdordagi sayyohlarni qabul qilish natijasida shikastlanmoqda.

1-jadval

Turizmning jamoat tovarlariga ta'siri

Tovar turi	Ta'sir	Choralar
Madaniy yodgorliklar	Ortiqcha yuklanish	Qo'shimcha mablag' va saqlash dasturlari
Tabiiy qo'riqxonalar	Tabiiy muhitga zarar	Ekologik monitoring va cheklovlar
Turizm infrastrukturalari	Sifatning pasayishi	Yangilanish va modernizatsiya dasturlari

***Manba:** Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jamoat tovarlari, ya'ni umumiy foydalaniladigan tabiiy va madaniy obyektlardan "bepul foydalanish" holatlari ham mavjud. Bu resurslarning saqlanish xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi, ammo sayyohlar yoki bizneslar tomonidan to'liq qo'shilgan qiymat ta'minlanmaydi. Shunday qilib, tashqi ta'sirlar bozor nuqsonlarining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, agar tashqi manfaat bo'lsa, bozor juda oz miqdorda tovar yoki xizmat ko'rsatmoqda. Aksincha, agar salbiy tashqi ta'sir, masalan, ifloslanish yuzaga kelsa, bozor juda ko'p miqdorda ishlab chiqarmoqda.

Bozor nuqsonlarining unchalik aniq ko'zga tashlanmaydigan va doimo tilga olinmaydigan jihatlardan biri daromad va boylikning taqsimlanishi bilan bog'liq masalalardir. Bozorlar boylar va kambag'allar o'rtasida paydo bo'ladigan adolatsizliklarni hisobga olmaydi, bu esa siyosiy va ijtimoiy jihatdan qabul qilinmaydi. Shu sababli hukumatlar va ularning tashkilotlari tomonidan farovonlikning noto'g'ri taqsimotini tuzatish uchun aralashuv zarur bo'ladi.

2-jadval

Turizm bozori muammolari va ularning yechimlari

Muammo	Ta'siri	Yechim
Bozor mexanizmlarining nuqsonlari	Resurslardan noadekvat foydalanish	Bozorga aralashuv va regulatsiyalar
Tashqi omillar	Ijtimoiy va iqtisodiy muammolar	Javobgarlik va tashqi ta'sirlar uchun to'lovlar
Avlodlar orasidagi adolatsizlik	Kelajak avlodlar manfaatlarining poymol bo'lishi	Sust barqarorlik siyosatlari va resurslarni muhofaza qilish

***Manba:** Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ichki avlodlar orasidagi adolat masalasining ikki o'lchami bor: vertikal va hududiy, bu nafaqat bir mamlakat ichida, balki mamlakatlar o'rtasida ham mavjud. Mamlakat ichidagi adolatsizliklarni bartaraf etish uchun subsidiyalar yoki soliqlar orqali daromadlarni teng taqsimlashga intilishadi. Lekin iqtisodiy rivojlanish, xususan, turizmning roli daromad tengsizligini kamaytirishda ta'sir etish yoki etmaslikka olib keladi.

Hududiy o'lchov mamlakat ichida mintaqaviy daromad farqlari, qishloq va shaharlar o'rtasidagi tafovutlarga bog'liq. Iste'molchilarning farovonligiga ta'sir qiladigan yashash xarajatlari o'rtasidagi farqlar ham muhim omildir, lekin unga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Shuningdek, global miqyosdagi daromadlar o'rtasidagi keng farqlar tobora yaqqollashib bormoqda, bu esa yer yuzi aholisining to'rtidan biri qashshoqlikda yashashini ko'rsatadi.

1992 yildagi Rio deklaratsiyasi yer yuzining qashshoq davlatlariga bo'lgan g'amxo'rlik va boylar hamda kambag'allar hayot tarzi o'rtasidagi farqlarga e'tibor qaratgan. Ichki avlodlar orasidagi ushbu adolatsizlik resurslardan foydalanish sur'ati, tabiiy va inson resurslariga ta'sir hamda barqarorlikka erishish nuqtai nazaridan ekologik jihatga ega. Shuningdek, resurslarni baholash va siyosat vositalarini ishlab chiqishda asosiy element hisoblanadi.

O'zbekistonda turizm rivojlanishi qishloq jamoalari va shaharlardagi turizm obyektlari o'rtasidagi adolatsizlikni oshirish xavfini tug'diradi. Qishloq jamoalarida sayyohlikdan kelib tushadigan daromadlar kam bo'lib, bu hududlar aholisining iqtisodiy farovonligiga sezilarli ta'sir qilmaydi. Masalan, Farg'ona vodiysidagi qo'l hunarmandchiligi yoki Boysun kabi mintaqa turizm potentsiali yuqori bo'lsa-da, infratuzilma va reklama yetishmasligi tufayli aholi bu sohadan manfaatdor bo'lmayapti.

Hozirgi avlodning talablari e'tibordan chetda qoldirilmagan holda, ekologik iqtisodchilar, xususan, barqarorlik masalalari bo'yicha, hozirgi inson faoliyatining kelajak avlodlarga bo'lgan ta'sirini hisobga olishni juda muhim deb bilishadi. Tabiiy aktivlar qoidasi, barqarorlikning qat'iy yondashuviga mos ravishda, hozirgi avlod tabiiy muhitni ishonchli tarzda saqlashi va uni kelajak avlodlarga buzilmagan holda topshirishi kerakligini e'tirof etadi.

Turizm va avlodlararo adolat o'rtasidagi bog'liqlik asosan barqarorlik va atrof-muhitga oid masalalarda namoyon bo'ladi. Turizm sektori bizneslarining uzoq muddatli barqarorligi atrof-muhit sifatini saqlashga bog'liqdir. Xulosa qilinishicha, turizm sektori barqarorlikni ta'minlash va manzil jamoalari manfaatlari uchun faol harakat qilish borasida yetarli yordam ko'rsatmagan.

Barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq, tabiiy va madaniy resurslarni kelajak avlodlarga buzilmagan holda yetkazish masalasi muhimdir. Ayniqsa, Oral dengizi fojiasi va uning atrof-muhitga ta'siri bu sohadagi jiddiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Turizm orqali ushbu hududning ekologik va iqtisodiy holatini yaxshilash choralari ishlab chiqilishi kerak.

Turizm tashqi omillar, jamoat tovarlari va avlodlar orasidagi adolatga doir masalalar ko'rib chiqilayotganda, ushbu masalalar yuzaga keladigan turizm faoliyatlari sohalari aniqlanadi va ularning iqtisodiyotdagi tahlilining ahamiyati tushuntiriladi. Turizm biznesi o'z faoliyatining salbiy ta'sirlarini yumshatish bo'yicha tashabbuslarni

amalga oshirayotgani haqida ma'lumotlar keltiriladi, ayniqsa, ichki avlodlar orasidagi adolatsizliklarni bartaraf etish bo'yicha.

O'zbekistonda turizm rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri bozor mexanizmlarining samarasizligi va resurslarni boshqarishdagi mavjud muammolardir:

Infratuzilma masalalari: Qishloq hududlarida infratuzilmaning yetishmasligi turizmni rivojlantirishga katta to'siq bo'lmoqda. Bunga yo'llar, mehmonxonalar va qulayliklarning yetarli emasligi misol bo'ladi.

Resurslarni baholash: Tabiiy va madaniy yodgorliklarni narxlash yoki qiymatini aniqlashda tizimli yondashuv mavjud emas. Masalan, Buxoro va Samarqand kabi shaharlardagi madaniy obyektlarga ortiqcha yuklanish ularning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Siyosiy iroda va qonunchilikning yetishmasligi: Resurslarga bo'lgan mulk huquqlarining noaniqligi va turizmni boshqarish bo'yicha aniq qonun-qoidalarining yo'qligi bozorning ishlamagan holatlarini yanada kuchaytirmoqda.

Bu bozor nuqsoni jihatida turizm sektorida muhim ahamiyatga hisoblanadi. Biroq, ichki va avlodlararo adolat hamda turizmga oid masalalar juda keng qamrovli ekanligini, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va ma'naviy masalalarni o'z ichiga olishini darhol qayd etish lozim. Bu haqda Lea², Uiler³, Peyj va Douling⁴, RiHolden⁵ va Fennel⁶ ta'kidlab o'tganlar.

Atrof-muhit keng ma'noda, Kn, Km va Kh elementlarini o'z ichiga olgan holda ta'riflangan. Rivojlangan davlatlarning rivojlanayotgan davlatlarga iqtisodiy kuch vositasida o'rnatgan gegemonligi bilan bog'liq nomutanosibliklarga e'tibor qaratilgan.

Biroq, yana bir muhim jihat shuki, rivojlanayotgan mamlakatlarning tabiiy muhitlarini qanday saqlash kerakligini belgilashga bo'lgan moyillik mavjud. Bu munosabat ehtimol juda tortishuvlidir, chunki qashshoqlik va yerni haddan tashqari ishlatish, o'tloqlarni ortiqcha foydalanish, yoqilg'i uchun o'rmonlarga qaramlik kabi ekologik buzilishlar o'rtasidagi bog'liqlik ko'pincha inobatga olinmaydi.

Bu muammolar jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalari, masalan, gender rollari, ijtimoiy tabaqalar, boylik va daromadlarning taqsimoti kabi omillar sabab qashshoqlikni yuzaga keltiradigan nomutanosibliklarni kuchaytiradi. Shu bois, qashshoqlik ichki avlodlar adolatining muhim jihatida sifatida kelgusi bo'limda batafsil ko'rib chiqiladi.

Xalqaro miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) rivojlanayotgan mamlakatlarning turizmdan tushgan daromad ulushi 1990-2020 yillarda oshganini tan olgan holda, qashshoqlikni turizm orqali yanada yumshatishning qo'shimcha yo'llarini taklif qilgan. Ular asosan ichki avlodlar o'rtasidagi adolatsizliklarni kamaytirishga qaratilgan.

Qashshoqlik masalasi doirasida e'tiborga molik yana bir yondashuv — "Tabiat uchun qarz" konsepsiyasi bo'lib, bu 1990-yillarda ma'lum darajada muhokama qilingan.

² Lea, J.P. (1993) 'Tourism development ethics in the third world', *Annals of Tourism Research*, 20:701-15.

³ Wheeler, B. (1994) 'Egotourism, sustainable tourism and the environment: a symbiotic, symbolic or shamiotic relationship', in Seaton, A.V. (ed.) *Tourism: The State of the Art*, Chichester: Wiley, 647-54.

⁴ Page, S.J. and Dowling, R.K. (2002) *Ecotourism*, Harlow: Prentice Hall; Pearson Education imprint.

⁵ Holden, A. (2005) *Tourism Studies and the Social Sciences*, London: Routledge.

⁶ Fennell, D.A. (2007) *Ecotourism*, 3rd edn, London: Routledge.

Uning mohiyati shundaki, rivojlangan mamlakatlar hukumatlari yoki atrof-muhitni himoya qilish tashkilotlari (masalan, Friends of the Earth va World Wide Fund for Nature) yoki xalqaro moliya institutlari rivojlanayotgan davlat hukumatlarining qarzlarini sotib olib, evaziga yovvoyi tabiat, o'simlik va hayvon turlarini muhofaza qilish dasturlarini barqaror ravishda amalga oshirishni talab qiladi.

Turizm bilan bog'langan bunday loyihalar daromad va ish o'rinlari yaratishi mumkin, agar mahalliy jamoalar rejalashtirish jarayonida, qaror qabul qilishda va loyihalarni boshqarishda faol ishtirok etsa, natijadorlik yanada oshishi mumkin.

Turizm bilan bog'liq ichki avlodlar adolatsizliklarining keng qamrovli misollari mavjud. Bu, ayniqsa, sayyohlar va joylashuv jamoalari aholisi o'rtasidagi hayot sifatining nomutanosibligini ko'rsatadi. Tourism Concern tashkiloti mahalliy jamoalarning rivojlangan davlatlardan kelganlar tomonidan ekspluatatsiya qilinishi va ularga nisbatan adolatsizliklarga qarshi kurashish maqsadida tashkil etilgan.

Masalan, sayyohlarga bo'lgan talab yuqori bo'lgan joylarda kam daromadli guruhlarining boshqa hududlarga ko'chirilishi natijasida mulk va yer narxlarining oshib ketishi Afrika, Birma, Misr, Gambia, Marokash va Filippinda kuzatilgan (Tourism Concern, 1995).

O'zbekistonda turizmdan kelib tushayotgan daromadlar hududlar o'rtasida teng taqsimlanmagan. Bu quyidagi holatlarda aks etadi:

Shahar hududlarida, xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi sayyohlik markazlarida daromadlar yuqori, lekin qishloq hududlarida turizmdan kelayotgan manfaatlar sezilarli darajada past.

Turizm manzillarida yer narxlarining oshib ketishi mahalliy aholiga zarar keltirmoqda. Bu holat ko'proq Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarda kuzatiladi.

Turizm etikasini muhokama qilishda, ilmiy adabiyotlarda umumiy manzara pessimistik bo'lib, ko'plab holat tadqiqotlariga asoslangan holda, turizm kompaniyalari va sayyohlar manzillar bilan qisqa muddatli munosabatda bo'lishi ta'kidlanadi.

Avlodlararo adolatga oid qiziqarli misol Zimbabveda mahalliy tashabbus sifatida vujudga kelgan. CAMPFIRE (Communal Area Management Programme for Indigenous Resources) dasturi 1989 yilda yo'lga qo'yilgan va xalqaro darajada mahalliy jamoalar uchun manfaatli, uzoq muddatli barqaror bo'lishi mumkin bo'lgan turizm modeli sifatida tan olingan. Ushbu dasturda yovvoyi tabiat ustidan mulk huquqlari mahalliy jamoalarga topshirilgan, bu esa ularga ov qilish va foto-safarlar uchun kvotalarni sotish huquqini bergan.

Tushum jamoa ehtiyojlari uchun, masalan, maoshlar va transport xarajatlarini qoplash uchun sarflangan, shuningdek, klinika, ko'prik va uy-joylar kabi ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlagan. Hatto hayvonlar tomonidan odamlarga yoki ekinlarga yetkazilgan zararni qoplash uchun ham mablag' ajratilgan. Bir necha yil davomida dastur juda muvaffaqiyatli bo'lgan va mamlakat YAIMning 5 foizigacha hissa qo'shgan⁷. Biroq, Zimbabvedagi siyosiy vaziyat va iqtisodiy inqiroz sababli dastur amalda tugatilgan.

Ko'pgina turizm firmalari, ayniqsa tabiatga asoslanganlar, juda kichik va iqtisodiy jihatdan murakkab sharoitda faoliyat yuritadilar. Ikki yil ichida bizneslarning yuqori

⁷ Weaver, D.B. (1998) Ecotourism in the Less Developed World, Wallingford: CABI

darajadagi muvaffaqiyatsizligi ular uchun katta xavfdir. Ular o'z faoliyatlarining uzoq muddatli rentabelligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va jamoalarning ijtimoiy tuzilmasini saqlab qolishga qaramdir.

Kelajakda manzillar barqarorligini ta'minlash uchun atrof-muhit, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarni bir vaqtning o'zida muvofiqlashtirish zarurati ortib bormoqda.

Xulosa

O'zbekistonda turizm sektorining rivojlanishi ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik imkoniyatlarni taqdim etmoqda, lekin shu bilan birga muhim muammolar va chaqiriqlarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari asosida, turizmning iqtisodiy afzalliklari aniq: u mamlakatga xorijiy valyuta olib kiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantiradi. Biroq, bu foydalar bilan birga ekologik va ijtimoiy muammolar ham kuchayadi, jumladan, tabiiy resurslarning ortiqcha foydalanilishi, ifloslanish, madaniy meros obyektlarining buzilishi va mahalliy jamoalarning turmush sharoitlariga salbiy ta'siri.

Bozor mexanizmlarining nuqsonlari tufayli, resurslarni samarali boshqarish va adolatli taqsimlash muammolari haligacha yechimini topmagan. Tashqi omillar, jamoat tovarlari va avlodlar orasidagi adolatsizliklar haqida mulohazalar turizmning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar asosida, O'zbekiston hukumati va turizm boshqaruv organlariga bir necha takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, turizmning ekologik ta'sirini kamaytirish va madaniy merosni saqlash uchun qat'iy ekologik normalar va madaniy merosni muhofaza qilish standartlari joriy etilishi kerak. Ikkinchidan, turizmdan tushgan daromadlarni adolatli taqsimlash va mahalliy jamoalarning iqtisodiy farovonligini oshirish uchun daromadlarni qayta investitsiya qilish tizimlari ishlab chiqilishi zarur.

Ushbu strategiyalarning amalga oshirilishi turizmning ijobiy ta'sirlarini kuchaytirishi va salbiy oqibatlarini kamaytirishi mumkin, bu esa O'zbekistonning turizm sektori uchun uzoq muddatli barqarorlik va rivojlanishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Boulding, K. (1966). The economics of the coming spaceship earth. In *Environmental quality in a growing economy* (pp. 3-14). Johns Hopkins Press.
2. Carson, R. (1962). *Silent Spring*. Houghton Mifflin.
3. Cater, E., & Fennell, D. A. (1997). *Ecotourism: A sustainable option?* John Wiley & Sons.
4. Costanza, R., d'Arge, R., de Groot, R., Farber, S., Grasso, M., Hannon, B., ... & van den Belt, M. (1997). The value of the world's ecosystem services and natural capital. *Nature*, 387(6630), 253-260.
5. Daly, H. E. (1991). *Steady-state economics* (2nd ed.). Island Press.
6. Dasgupta, P., & Heal, G. (1979). *Economic theory and exhaustible resources*. Cambridge University Press.
7. Fennell, D. A. (2008). Ecotourism and the myth of indigenous stewardship. *Journal of Sustainable Tourism*, 16(2), 129-149.
8. Gilpin, A. (2000). *Environmental economics: A critical overview*. Wiley.
9. Holden, A. (2008). *Environment and tourism* (2nd ed.). Routledge.

10. Hotelling, H. (1931). The economics of exhaustible resources. *Journal of Political Economy*, 39(2), 137-175.
11. Lovelock, B. (2007). *Tourism and the consumption of wildlife: Hunting, shooting and sport fishing*. Routledge.
12. Mirrlees, J. A., & Stern, N. H. (1972). *Models of economic growth*. Macmillan.
13. Pearce, D. W., & Turner, R. K. (1990). *Economics of natural resources and the environment*. Harvester Wheatsheaf.
14. Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. (2003). *The competitive destination: A sustainable tourism perspective*. CABI Publishing.
15. Schumacher, E. F. (1973). *Small is beautiful: Economics as if people mattered*. Harper & Row.
16. Turner, R. K., Pearce, D., & Bateman, I. (1994). *Environmental economics: An elementary introduction*. Harvester Wheatsheaf.
17. Taniyev A.B. Milliy turizm xizmatlari bozorida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish: nazariya va amaliyot . Monografiya. Toshkent. Innovatsiya ziyo 2025 yil 192 b.
18. Taniyev A.B. Turizmga soliqlarning ta'siri. Monografiya. Toshkent "NIF MSH" Mas'uliyati cheklangan jamiyat 2024-yil 189 b.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

